



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning
20__ - 20__ - o'quv yiliga 5 - sinflar uchun
II chorak adabiyot fanidan

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 5-sinf adabiyot fanidan II chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
II chorak				
1.	Sharq hikoyat va rivoyatlari. “Ibn Sino shogirdlari”, “Non hurmati”	1		
2.	Sharq hikoyat va rivoyatlari. “Ota vasiyati”, “Yaxshilik unutilmaydi”	1		
3.	Hamza Imonberdiyev. “Ohu”, “Turnalar” she’rlari	1		
4.	Hamza Imonberdiyevning “G‘anicha” she’ri	1		
5.	Isajon Sulton. “Otamga nimadir bo‘ldi...” hikoyasi (1-qism)	1		
6.	Isajon Sultonning “Otamga nimadir bo‘ldi...” hikoyasi (2-qism)	1		
7.	Hikoya haqida suhbat	1		
8.	<i>BSB-2. Asar tahlili (50 ball)</i>	1		
9.	Mirtemir. “Bulut” she’ri	1		
10.	Mirtemirning “To‘rg‘ay”, “Shudring” she’rlari	1		
11.	Mirtemirning “Baliq ovi”, “Qishlog‘im” she’rlari	1		
12.	Choraklik loyiha ishi	1		
13.	CHSB-2 (40 ball)	1		
14.	Takrorlash, mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Sharq hikoyat va rivoyatlari. “Ibn Sino shogirdlari”, “Non hurmati”

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o’quvchilarga asarni o’qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g’oyasini (yoki g’oyalarni) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o’rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so’zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o’quvchilarda mavzu bo’yicha bilim, malaka va ko’nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o’quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg’ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o’qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o’rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko’nikmalarini boyitish..

O’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O’zini-o’zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda mustaqil o’qib-o’rganish, o’z-o’zini rivojlantirish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

vatanni sevis, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo’lish.

Darsning metodi: og’zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o’zi uchun.

Nazorat: o’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo’limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O’tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O’quvchilarni rag’batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so’rash: a) Savol – javob o’tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Sharq xalqlari og’izdan og’izga o’tib kelgan teran ma’noli hikmatli so’zlar, ibratli hikoyat va rivoyatlarni qadimdan sevib tinglagan, ularda aytilgan pand-nasihatlariga amal qilib yashashga intilgan. Shuning uchun ham hikmatlar Sharq adabiyotining asosi hisoblana-di. Hajman qisqa, mavzu jihatidan rang-barang hikoyatlarda hayotiylik, rivoyatlarda esa tarixiylik aks etadi.

Rivoyat va hikoyatlar odatda ixcham bo’ladi. Turli hayotiy va to’qima voqeliklar orqa-li milliylik va umuminsoniylik ulug’lanib, insonparvarlik, ezgulik, yaxshilik tushunchalari vahshiylik, yovuzlik va boshqa illatlarga qarshi qo’yiladi. Rivoyatlar mavzusi, mazmuniga ko’ra tarixiy va toponimik turlarga bo’linadi.

Tarixiy rivoyatlarda biror shaxs faoliyati yoki xalq qahramonlari bilan bogliq ibratli voqealar hikoya qilinadi, insoniy fazilatlar tarannum etiladi. To’maris, Shiroq kabi afsonaviy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir. Tarixiy rivoyatlar voqealarga guvoh bo’lganlarning, ko’rgan-bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin.

Toponimik rivoyatlarda shahar, qishloq, qo’rg’on, saroy, maqbaralar nomlari hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog’liq voqealar hikoya qilinadi. Toponimik rivoyatlar xotimasida odatda ushbu hikoyadan maqsad ta’kidlanadi va muayyan ma’lumot izohlanadi (“To’rabek xonim maqbarasi”, “Anda jon qoldi”, “Odinajonim”, “Qo’ng’irot” va hk.).

Rivoyatlar og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan! uchun bizgacha asosan og‘zaki hamda qisman yozma shaklda yetib kelgan. Herodotning “Tarix”, Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” kabi asarlarida rivoyatlarning qa-dimiy namunalari keltirilgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Hikoyat va rivoyatlarning asr|ar*davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, bizgacha yetib kelishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
2. Ibratli hayot kechirish deganda nimani tushundingiz? Umr yo‘li boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan insonlardan kimlarni bilasiz?

Ibn Sino shogirdlari

Tabiblarning tabibi, ulug‘ hakim Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olibdi. Shunda shogirdlari, eng yaqin do‘st-birodarlari yig‘ilishibdi. Yor-do‘stlari yaxshi so‘z aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilsa, shogirdlari ustozini dori-darmon bilan davolashga kirishibdi.

Ibn Sino do‘st-

birodarlariga rahmatlar

aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

- Ey shogirdlarim, kunim bitgan ko‘rinadi. Shu bois meni davolayman deb behuda harakat qilmanglar. Bordi-yu kunim bitib, vafot etsam, yig‘i-sig‘i, oh-voh qilib o‘tirmanglar. Faqat haqqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilisangiz bas. Ustoz olamdan o‘tdi, endi tabobat oqsaydi deb ham qayg‘urmanglar. O‘rnimga besh zo‘r tabibni qoldirib ketmoq-daman. Shu tabiblarning maslahatlariga o‘zingiz ham doim amal qiling, boshqalarni ham da‘vat eting, - debdi. Shogirdlaridan biri:

- Ustoz, siz aytgan tabiblar kim? - deb so‘rabdi. Shunda Ibn Sino:


- Men qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarimning biri - tozalik, ikkinchisi - parhez, uchin-chisi - badantarbiya.

Qolgan ikkisi esa mizoj bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo‘lish, ko‘ringan narsani, ya‘ni har

qanday ovqatni yeyavermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqat-lanishda parhez, me‘yorni bilish, ichkilikka ruju qo‘ymaslik, tana a‘zolarini harakatsiz qoldir-maslik, mizojni unutmaslik va nihoyat kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish - mana shularga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o‘lim ham orqaga chekinadi. Mizoj - inson tabiati, xulq-atvori; kishi organizmining o‘ziga xos talabi.

Keling, suhbatlashamiz

1. O‘ylab ko‘ring-chi, Ibn Sino aytgan besh tabib sizning hayotingizda qanday o‘rin tutadi? Siz ularning qay biriga amal qilasiz?
2. Pokizalikni yaxshi ko‘rasizmi? U insonni nimalardan asraydi?
3. **Ko‘ngli toza** iborasining besh tabibdan biri deya e‘tirof etilgan *tozalikka* aloqasi bormi? Fikringizni asoslang.
4. Yaxshi kayfiyatda bo‘lishning salomatlikka qanday ta’siri bor deb o‘ylaysiz? Sizning kayfiyatingizga nimalar yaxshi, nimalar yomon ta’sir qiladi? Sanab bering.



Non hurmati

Mirzo Ulug‘bek mulozimlari bilan ketayotganida yo‘l yoqasida yotgan bir burda nonni ko‘rib qolibdi va darrov otdan tushib, uni qo‘yniga solibdi. Mulozimlardan biri:

- Sultonim, nega bizga buyurmay, o‘zingiz otdan tushdingiz? - deb so‘raganida shunday javob beribdi:
- Nonni birinchi bo‘lib men ko‘rdim, shunday ekan, uni yerdan olishni boshqa birovga buyurish mening nonga nisbatan hurmatsizligim bo‘lar edi. Nonning ulug‘ligi oldida mening podshohligim nima bo‘libdi?! Siz uchun qadrli bo‘lgan ne‘matlarning hayotingizdagi o‘rni, ahamiyati haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni isrof qilmaslik uchun qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

Topshiriqni daftaringizda bajarthg:

Ne‘matlar	Qay tarzda isrof bo‘lmoqda?	Yechim
...	...	...
...	...	...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Mirzo Ulug‘bekning shaxsiyati haqida sizda qanday tasavvur uyg‘ondi?
2. E‘zozlash deganda nimani tushunasiz? U insonning qaysi xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi?
3. Rivoyat mazmuniga mos keluvchi maqollardan namunalar keltiring.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:

Ibn Sino tavsiya qilgan besh tabibga yana nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz? Javobingizni asoslab, matn ko‘rinishida yozing.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Sharq hikoyat va rivoyatlari. “Ota vasiyati”, “Yaxshilik unutilmaydi”

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarni) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

kutubxonalaridan qiziqarli badiiy kitoblarni topa olish, ulardan foydalanish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oil, maktab, mahallada bo‘layotgan jarayonlarda faol ishtirok etish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ota vasiyati

Qadim zamonda bir kambag‘al dehqon bo‘lgan ekan. Uning hovlisida toklar bor ekan. Shu tokdan olgan hosilini sotib, qishin-yozin tirikchilik qilarkan. Bir kuni dehqon betob bo‘lib yotib qolibdi. Shunda u yolg‘iz o‘g‘lini yoniga chaqirib, bunday debdi:

- O‘g‘lim, mening kunim bitganga o‘xshaydi. Senga aytadigan bir gapim bor. Shuni qulog‘ingga quyib ol. Toklarimiz tagiga ikki xum tilla ko‘milgan. Shu tillani yilda ikki marta - bahor va kuzda kovlab olib, tirikchiligingga yaratgin. Zora shu bilan boyib ketsang. Otasi shu gaplarni aytibdi-da, olamdan o‘tibdi. Bu payt qish ekan, bola bahorni orziqib kutibdi. Bahor ham kelibdi. Yigit ketmonni qo‘liga olib, toklarning tagini belbog‘ bo‘yi qilib kovlab chiqibdi. Biroq oltin topilmabdi. Shu orada toklar sho‘ra chiqarib, yaproq yoza boshlabdi. Yigit tilla qidirishni vaqtincha to‘xtatib, tok bilan ovora bo‘lib qolibdi. Shu yili tok chunonam hosil beribdiki, yigit uni sotib tamom qilolmabdi. U “Otam toklar tagiga ko‘milgan tillalarni ikki marta - bahor va kuzda kovlab olgin, degan edilar”, deya kuzda ham kovlabdi.

Keiasi yili ko‘klamda ham yigit oltin qidirib, bog‘ning tit-pitini chiqarib yuboribdi. Yana oltin topilmabdi. Biroq bu yil tok o‘tgan yilgidan ham ko‘p hosil beribdi. Yigit uni sotib, juda ham boyib ketibdi. Lekin xayoli hamon otasi aytgan oltinda ekan. U shu to‘g‘rida xayol surib o‘tirganida, otasining qadrdon do‘sti kelib qolibdi. Yigit unga voqeani aytgan ekan, chol xoxolab kulibdi-da, keyin:

Bolam, otang aytgan oltinlarni kovlab olibsan-ku, - debdi.

Otaxon, bahorda ham, kuzda ham kovlab, bog‘dan bir misqol ham oltin topganim yo‘q, - debdi yigit. - Nega yolg‘on gapirasani? Bo‘lmasa, bu boyliklarni qayerdan orttirding? - deb so‘rabdi chol. - Mehnat qilib topdim.

Sen mehnatni hosil olish uchun emas, oltinni topish uchun qilding. Mehnating zoye ketmadi. Bahor va kuzda ishlov berilgan toklar hosilini ayamadi. Otang rahmatli ko‘p aqlli odam edi. U senga mehnatdan unadigan oltinlarni aytgan, - debdi chol.

Haqiqatni tushunib yetgan yigit otasidan minnatdor holda toklarini har yili ikki marta parvarish qilib, mo‘l hosil olaveribdi.

Keling, suhbatlashamiz

1. Nima deb o‘ylaysiz, yigit vasiyatning mohiyatini nega avvalroq anglab yetmadi? Otaning nasihatini dastlab siz qanday tushundingiz?

2. Sizningcha, mehnat chindan ham baxt keltiradimi? Boylik-chi? Fikringizni hayotiy misollar bilan dalillang.

3. Ota-onangiz yoki o‘qituvchingiz buyurgan vazifani o‘z vaqtida maromiga yetkazib bajarganingizda o‘zingizni qanday his qilasisiz?

4. O‘ylab ko‘ring-chi, qanday xislatlarga ega inson bilan do‘st bo‘lishni xohlardingiz? Nima uchun?

Yaxshilik unutilmaydi

Luqmoni hakim doimo boshqalarga qarz berar ekan. lining himmati va saxiyligini eshitgan kishilar uzoq shahar va qishloqlardan qarz so‘rab kelisharkan. Kunlardan bir kuni uning huzuriga noma‘lum bir savdogar kelib debdi:

- Ey Luqmon, men mashhur savdogar edim. Davr hodisotlari tufayli butun mol-mulkimdan ayrildim. Hozir hech narsam yo‘q. Qo‘limdan hech bir ish kelmaydi, kasb-hunarim yo‘q. Sendan qarz so‘rab keldim!

Luqmon uyidan ming dinor olib chiqib, savdogarning qo‘liga tutqazibdi. Buni kuzatib turgan o‘g‘li so‘rabdi:

- Ota, shuncha pulni hech vaqosi yo‘q notanish odamga berib yubordingiz, u tonib ket- sa, nima qilasisiz? - debdi.

- Ey O‘g‘lim, - debdi Luqmon, - odamlar hech qachon yaxshilikni unutmaydilar. Ular sendan vaqtincha yuz o‘girsalar ham, baribir insofga keladilar. Har bir inson qo‘lidan kel- ganicha boshqalarga yaxshilik qilishi va qilgan saxovatini unutishi zarur. Ammo boshqalar- ning o‘ziga qilgan yaxshiligini unut(nasligi kerak).

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Nima deb o‘ylaysiz, insonning saxiyligi uning qaysi xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi?

2. Luqmoni hakimning *“Har bir inson qo‘lidan kelganicha boshqalarga yaxshilik qilishi va qilgan saxovatini unutishi zarur”* began fikrini sharhlashga harakat qiling. Nega u qilingan yaxshilikni unutish zarur deb hisoblaydi? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.

3. O‘zgaiarga qilgan yaxshiligini unutadigan, ammo o‘ziga qilingan yaxshilikni esda saqlaydigan insonga uch so‘z bilan ta‘rif bering.

4. Luqmoni hakimning o‘g‘li otasining o‘gitidan qanday xulosa chiqargan bo‘lishi mum- kin? Taxmin qilib ko‘ring va uni daftaringizga yozing.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:

Yoshi katta insonlar oldiga borib, ulardan yashab turgan hududingiz (qishloq, tuman, shahar) tarixi bilan bog‘liq hikoyat va rivoyatlar, tarixiy ma‘lumotlar so‘rang va kerakli deb hisoblaganlaringizni daftaringizga yozing. Buning uchun quyidagi namunaga tayanishingiz mumkin:

“Men 5-sinf o‘quvchisi Azamatman. Qishlog‘imiz nomi - “Tatar”. Tabiatijuda chiroyli.

Qishlog‘imiz nomi meni har doim ajablantirib keladi. Chunk! nomi “Tatar”-u, ammo bu yerda tatar millatiga mansub hech kirn yashamaydi. Uzoq o‘lkalardan, begona joylardan kelgan kishilar “bu yerda nechta tatar yashaydi?” deb so‘rayveradi. Ularga bu yerda tatar-lar yashamasligini aytaverib, charchadik. Ularesa ajablanganidan yelka qisishar, “nega unda “Tatar” deyilgan?” deb so‘rashgani so‘rashgan edi... Oxiri buning tagiga yetishga harakat qildim. Ustozimning maslahati bilan qishloqning eng yoshi katta insonlari: 95 yoshli Nurmuhammad bobo va 90 yoshli Hojar momoning oldilariga bordim. O‘zimni ularga tanishtirib, maqsadimni tushuntirdim. Ular qishloq tarixi va uning nomiga oid qiziqarli rivoyatlar aytib berdilar. Rivoyatlardan birini yozib oldim.

Emishki, jang-jadallardan, davlat ishlaridan charchagan Buxoro amiri mulozimlari-ga dam olish uchun so‘lim joy topishni buyuribdi. Mulozimlar to‘rt tarafga tarqalib, amir istagidagi joyni qidirishga tushib ketibdi. Ularning birguruhi ikki tog‘ orasidan oqib o‘tuvchi daryo etagida joylashgan qishloqqa kelib

qolibdi. Bu joy ularga juda ham yoqibdi va amir-ga bu manzil haqida darhol xabar beribdi. Amir u yerning nomi, tabiati haqida surishtiribdi. Mulozimlar bu qishloqning tabiatini biri qo'yib, biri maqtay ketibdi-yu, ammo qishloqqa haligacha aniq nom qo'yilmaganini ham hayrat bilan so'zlab beribdi. Amirning qiziqishi ortib, nomsiz qishloqqa yo'l olibdi. Yo'lyursa ham, mo'l yuribdi. Nihoyat daryo bo'ylab joylashgan, ikki tog' qo'ynidagi so'lim qishloqqa yetib kelishibdi. Amirning mulozimlari: "Amirim, sizga aytgan joyimiz shu", deyishibdi. Amir ikki tog'ning torgina oralig'idan daryo oqib o'tadigan, archa-yu tollar, teraklar, chinorlar ko'rkiga ko'rk bag'ishlab turadigan, tabiati juda ham so'lim bo'lgan bu qishloqqa sinchkovlik bilan nazartashlab, shunday debdi:

- Bu qishloqqa bitta nom kamlik qiladi, chog'i. Unga ikkita nom qo'yamiz: biri- ikki tog'ining orasi tor bo'lgani uchun "Tog'itor" bo'lsin, bahavo joyligidan, kelgan kishilarni yana qayta o'ziga bog'lab, tortib turgani uchun ikkinchi nomi "Tortar" bo'lsin, - debdi. Amirning so'zi - vojib. Shu-shu qishloq shunday nomlanadigan bo'libdi.

Vaqtlar o'tib, amir qo'yib bergan nom og'zaki tilda buzilib, "Tatar" shaklida aytiladigan bo'lib qolgan ekan. Nurmuhammad bobo, shuningdek, qishloqning "Chillamozor", "Yakkazirk", "Bog'ot", "Dara", "Jurjurak", "Aliko'prik", "Jayraxona" degan joylarining nomlanishi, qishloq aholisi uchun qurilgan qadimiy masjidning tarixi, daryo nomiga nega "qizil" so'zi qo'shib aytilishi haqida bir-biridan qiziq va g'aroyib hikoyalarni aytib berdilar. Men esa qishlog'imiz tarixini miridan sirigacha biladigan Nurmuhammad bobodek odamlari bor shunday ajoyib joyda yashayotganimdan faxrlanib ketdim..."



O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun
kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat
qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali
bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab
telegramdan yozishingiz so‘raladi.
Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob
beriladi

38 listdan iborat adabiyot fanidan 5-sinf
II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun
telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**